



## XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO VILOYATI KENGASHI Q A R O R I

100120, Guliston sh., Islom Karimov k., 60-uy, tel: (67)225-33-51, 225-06-78, e-mail: [sirdaryo@exat.uz](mailto:sirdaryo@exat.uz)

2022 - yil 9 - dekabr

VI-41-154-9-0-K/22

Sirdaryo viloyati hokimligi

### **Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashiga saylov o‘tkazuvchi viloyat saylov komissiyasining tarkibiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddasi hamda “Saylov kodeksi”ning 19-moddasiga asosan Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashiga saylov o‘tkazuvchi viloyat saylov komissiyasi a‘zosi **Abdurahmonov Abdushokir Abdukarimovich** Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati etib saylanganligi munosabati bilan viloyat saylov komissiyasi tarkibidan chiqarilsin.

2. Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashiga saylov o‘tkazuvchi viloyat saylov komissiyasi tarkibiga viloyat Madaniyat boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari **Baratov Shuhrat Abdufataxonovich** o‘tkazilsin.

3. Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining 2022-yil 20-iyundagi VI-35-67-9-0-K/22-sonli qarorining 1-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin.

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashiga saylov o‘tkazuvchi viloyat saylov komissiyasining a‘zosi Abdurahmonov Abdushokir Abdukarimovich o‘z arizasiga muvofiq komissiya tarkibidan chiqarilsin.

4. Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashiga saylov o‘tkazuvchi viloyat saylov komissiyasi tarkibiga Baratov Shuhrat Abdufataxonovich a‘zo sifatida o‘tkazilsin.

Mazkur qarorning 2 va 3-bandlari 4 va 5-deb o‘qilsin.

5. Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashiga saylov o‘tkazuvchi viloyat saylov komissiyasi tarkibi o‘zgarishlar bilan birga ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Mazkur qaror Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashiga saylov o‘tkazuvchi viloyat saylov komissiyasiga yuborilsin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi Reglament va deputatlik odobi masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi X.Artukbayeva zimmasiga yuklatilsin.

**Sessiya raisi**



**A.Abduraxmanov**

Xalq deputatlari Sirdaryo  
viloyat Kengashining  
2022 yil 9 dekabrda  
VI-41-154-9-0-K/22-son  
qaroriga  
1-ilova

**Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashiga saylov o'tkazuvchi  
viloyat saylov komissiyasi tarkibi**

№	Familiyasi, ismi va otasining ismi		Ish joyi va lavozimi
1.	SATTAROV Saloxiddin Ulug'bekovich	-	Viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i
2.	BARATOV Shuhrat Abdufataxonovich	-	Viloyat madaniyat boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari
3.	SHERBOYEV Jahongir Parmonqulovich	-	Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashiga saylov o'tkazuvchi viloyat saylov komissiyasi <b>kotibi</b>
4.	XOLBOYEVA Nargiza Ibodullayevna	-	Prezident ta'lim muassasalari agentligining Sirdaryo viloyati hududiy bo'limi boshlig'i
5.	ABDURAXMANOVA Zamira Amirillayevna	-	Guliston tibbiyot kolleji o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
6.	MAXAROV Alimdjan Keldiyevich	-	Sirdaryo viloyati kadastr boshqarmasi boshlig'i
7.	KARIMOV Oybek Abdunabiyevich	-	Yangiyer shahar bolalar va o'smirlar sport maktabi direktori
8.	TAGAYEV Bexzad Anvarovich	-	Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i
9.	SHERBO'TAYEVA Gulnora Obidovna	-	Guliston shahar sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi boshlig'i
10.	NE'MATOVA Zulfiya Sultonovna	-	Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari
11.	KUSHAKOV Faxriddin Baxtiyarovich	-	Viloyat moliya bosh boshqarmasi boshlig'i
12.	BOBOYEV Abduqodir Mahammadjonovich	-	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi Sirdaryo viloyati boshqarmasi boshlig'i
13.	MAMADAMINOV O'lmas Yarmahammedovich	-	Viloyat mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'i
14.	DUSTOV Davron Zulhaydarovich	-	Viloyat maktabgacha ta'lim boshqarmasi boshlig'i

15.	ESONOV Aziz Abdusattorovich	-	Viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiya boshqarmasi boshlig'i
16.	GAFOROVA Tojixon Abdijabborovna	-	Sirdaryo viloyati hamshiralar Assotsiatsiyasi raisi
17.	GAIMNAZAROV Olimjon Gulmurodovich	-	Guliston davlat universiteti fizika-matematika fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari